

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasiga oid o'z kuchini
yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlar haqida
MA'LUMOT**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 23-avgustdagi 388-son buyruqning 7-ilovasi 3-bandi ijrosi bo'yicha vazirlikning Axborot xizmati va Raqamli ta'lim технологияларини ривожлантириш марказига тақдим этилмоқда:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 oktabrdagi PF-158-son Farmoniga 12-ilova bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi ayrim hujjatlari o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etildi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonining 2-bandi ikkinchi — to'rtinchi xatboshilari, 3-bandi "a", "b", "v", "g", "e" kichik bandlari, "d" kichik bandining ikkinchi va to'rtinchi xatboshilari hamda 1 — 3-ilovalari.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PF-6031-son Farmoniga ilovaning 1-bandi ikkinchi xatboshisi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-son Farmoniga 5-ilovaning 1 — 3-bandlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevraldagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimi joriy etilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-6176-son Farmoniga 1-ilovaning 3-bandi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-6217-son Farmoniga 1-ilovaning 5-bandi "a" va "b" kichik bandlari.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-45-son Farmoniga 1-ilovaning 5-bandi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF-94-son Farmoniga 1-ilovaning 1-bandi "a" va "b" kichik bandlari.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-106-son Farmoniga 7-ilovaning 1-bandini “a” — “v” kichik bandlari.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-183-son Farmoniga ilovaning 2-bandini “a” kichik bandi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-214-son Farmoniga 1-ilovaning 2-bandini “a” kichik bandi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdaagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-258-son Farmoniga 1-ilovaning 3-bandini “a” kichik bandi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi PF-107-son Farmoniga 1-ilovaning 6-bandini “a” kichik bandi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5140-son qaroriga 4-ilovaning 2-bandini “a” kichik bandi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200-son qaroriga 6-ilovaning 34-pozitsiyasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-216-son qaroriga 3-ilovaning 1-bandini “a” kichik bandi.

II. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagi 489-son qaroriga 4-ilova bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining quyidagi ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblandi.

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2004-yil 20-iyuldagi 341-son qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2006-yil 7-avgustdagi PQ-436-son qarori)” 2006-yil 2-oktabrdagi 207-son qaroriga 1-ilovaning 18-bandini.

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2010-yil 5-iyundagi 108-son qaroriga ilovaning 47-bandi.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2004-yil 20-iyuldagi 341-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2011-yil 26-yanvardagi 18-son qarori.

5. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” 2014-yil 3-dekabrda O‘RQ-378-son Qonuni)” 2015-yil 31-martdagi 74-son qaroriga ilovaning 3-bandi.

6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ba‘zi qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 14-fevraldagi PF-4954-son Farmoni)” 2017-yil 7-iyuldagi 472-son qaroriga 1-ilovaning 3-bandi.

7. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son qarori)” 2017-yil 30-dekabrda 1039-son qaroriga ilovaning 1-band.

8. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining Oliy ta‘lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2019-yil 26-fevraldagi 172-son qarorining 2-bandi va 2-ilovasi.

9. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 2-fevraldagi PQ-4151-son qarori)” 2019-yil 3-iyundagi 457-son qaroriga 1-ilovaning 10-bandi.

10. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida” 2019-yil 10-dekabrda O‘RQ-591-son Qonuni)” 2020-yil 16-aprelda 234-son qaroriga ilovaning 2-bandi.

11. Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-iyundagi 345-son qaroriga 3-ilovaning 7-bandi.


12. Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 545-son qarorining 1-bandi va 1-ilovasi.

13. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” 2021-yil 20-apreldagi O‘RQ-682-son Qonuni)” 2022-yil 4-apreldagi 153-son qaroriga ilovaning 122-bandi.

III. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining “Xorijiy tillar va umumta‘lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 2-bandi bilan (ro‘yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) quyidagi idoraviy normativ hujjat o‘z kuchini yo‘qotdi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining 2021-yil 31-avgustdagi 1-mh va 23-mh-son “Xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarning ro‘yxatini hamda xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar o‘rtasidagi muvofiqlik darajasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami 3318, 2021-yil 7-sentabr).

**Юридик таъминлаш
бўлими бошлиғи**



А.Кўчкаров